

«TASDIQLAYMAN»

“Biznesni rivojlantirish banki” ATB
Boshqaruv raisi o‘rinbosari

O. Voxidov



“Biznesni rivojlantirish banki” ATBga savdoni moliyalashtirish yo‘nalishini rivojlantirish uchun
konsultant yollash bo‘yicha

TEXNIK TOPShIRIQ

Toshkent – 2024-yil

T/r	Talablar ro'yxati	Talablar mazmuni
1	Tashkilotchi	“Biznesni rivojlantirish banki” ATB
2	Buyurtmachi	“Biznesni rivojlantirish banki” ATB
3	Bajariladigan ish yoki ko'rsatiladigan xizmat turi	“Biznesni rivojlantirish banki” ATBning Savdoni moliyalashtirish yo'naliishi bo'yicha faoliyatini rivojlantirish
4	Tanlov savdolarini o'tkazish uchun asos	O'zbekiston Respublikasining 2021-yil 22-apreldagi №684- sonli “Davlat xaridlari to'g'risida”gi qonuni, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 14-sentabrdagi “Kichik biznesni rivojlantirishni moliyaviy va institutsional qo'llab-quvvatlash chora-tadbirlari to'g'risida”gi 306-sonli qarori hamda bankning ichki tartibi hamda Xalqaro moliya institutlari bilan ishslash departamenti direktorining bildirishnomasi.
5	Xizmatni boshlash muddati	Buyurtmachi va go'lib deb topilgan korxona (keyingi o'rinda Tomonlar) o'rtasida shartnoma imzolangan kunidan boshlab
6	Xizmatni bajarish muddati	Tomonlar o'rtasida imzolangan shartnoma kunidan boshlab 120 kun davomida (tomonlarning kelishuviga muvofiq xizmat ko'rsatish muddati shartnomada ko'rsatilgan muddatdan oldin tugallanishi mumkin).
7	Xizmatning maksimal qiymati	35 000 (o'ttiz besh ming) AQSH dollarigacha (barcha soliqlar va majburiy to'lovlardan birga). Bir oylik xizmat narxi – 8750 AQSH dollarigacha (barcha soliqlar va majburiy to'lovlardan birga).
8	To'lov shartlari	Har oyda bajarilgan ishlar bo'yicha Tomonlar o'rtasida qabul qilish dalolatnomasi imzolanadi va schyot-faktura taqdim etilgandan keyin oylik to'loving 100% 5 (besh) bank kuni ichida amalga oshiriladi.
9	Shartnoma valyutasi	AQSH dollari
10	Ish, xizmatni yetkazib berish/bajarish manzili	“Biznesni rivojlantirish banki” ATB, Toshkent sh, Shayxontohur tumani, A.Navoiy ko'chasi, 18 - A uy.
11	Tanlov tishtirokchilariga qo'yilgan talablar	<ul style="list-style-type: none"> • Savdoni moliyalashtirish sohasida konsalting bo'yicha xalqaro tajribaga ega bo'lishi zarur; • Xalqaro savdo operatsiyalari amalga oshirish bo'yicha tasdiqlangan bilim va ko'nikmalarga ega bo'lishi zarur; • Xalqaro to'lovlari, kafolatlar, akkreditivlar va boshqa savdoni moliyalashtirish vositalari bilan bog'liq jarayonlar va talablarni tushunishi zarur; • Biznes jarayonlarini tahlil qilish va ularni optimallashtirish bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqish qobiliyatiga ega bo'lishi zarur; • Turli darajadagi xodimlar bilan muloqot qilish ko'nikmalari va tajribasiga ega bo'lishi zarur; • O'quv mashg'ulotlari va treninglarni o'tkazish qobiliyatiga ega bo'lishi zarur.
12	Xizmatni yetkazib beruvchiga / bajaruvchiga qo'yiladigan talablar	<p><u>Bankda savdoni moliyalashtirish jarayonlarini joriy holatini tahlil qilish:</u></p> <ul style="list-style-type: none"> • Bankda qo'llanilayotgan jarayonlarni o'rganish; • Bankning tegishli xodimlarning bilim va malaka darajasini baholash;

- Bankning afzalliklari va kamchiliklarni aniqlash.
- Savdoni moliyalashtirish yo'nalishini rivojlantirish strategiyasini ishlab chiqish:**
- Savdoni moliyalashtirish sohasidagi ishlarni takomillashtirish bo'yicha aniq tadbirlarni taklif qilish;
 - Savdoni moliyalashtirish sohasidagi o'zgarishlarni amalga oshirishning ustuvor yo'nalishlari va unga talab etiladigan vaqt ni aniqlash;
 - Bankning tarkibiy bo'linmalar o'rtaida savdoni moliyalashtirishga oid ishlar taqsimotini amalga oshirish.
- Bank xodimlarini bilim va ko'nikmalarini rivojlantirish:**
- Savdoni moliyalashtirish borasida bank xodimlari uchun o'quv kurslari va treninglarni tashkillashtirish;
 - Bank mijozlarini savdoni moliyalashtirish instrumentlari bilan tanishtirish uchun joylarda seminarlar tashkillashtirish;
 - O'tkazilgan o'quv kurslari natijalarini baholash va ularni qo'llab-quvvatlashni ta'minlash bo'yicha tegishli strategiya tuzish;
- Bank xodimlarini bilim va ko'nikmalarini qo'llab-quvvatlashni ta'minlash:**
- Bankda amalga oshirilgan o'zgarishlarning samaradorligini baholash va savdoni moliyalashtirish natijalarini yaxshilash bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar va takliflar tayyorlash;
 - Bankda savdoni moliyalashtirish sohasini kelgusi rivojlanishi bo'yicha Bank rahbariyatiga takliflar tayyorlash.

13	Buyurtmachi mas'ul vakilining ism, familiyasi va lavozimi, manzili va telefon raqami	A. Palvanov, Xalqaro moliya institutlari bilan ishlash departamenti direktori, tel: +998 78 150 93 39, ichki raqam: 500
14	Takliflarni berishning oxirgi kuni va vaqtini	Tanlov e'lon qilingan kundan boshlab 7 ish kuni davomida.
15	Baholash mezoni	Tanlov natijalari eng kam narx taklifi mezonlari bo'yicha baholanadi.
16	Kafolat muddati	1 yil .

Xalqaro moliya institutlari
bilan ishlash departamenti direktori

A. Palvanov